

28/3-24-son

5-aprel 2025-yil.



“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vaziri

_____ **D. Kuchkarov**

**O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil uchun mo‘ljallangan
ISH REJASI**

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
I. I. Norqulov – vazirning birinchi o‘rinbosari <i>(Hududlarni iqtisodiy rivojlantirish, kichik va o‘rta biznes rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, xizmatlar sohasini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligi hamda yer islohotlari va master rejalarni ishlab chiqish masalalari)</i>				
1.	15 ta tuman (shahar)ni jadal kompleks rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.	1. Tahlil va joyiga chiqib o‘rganishlar natijasidan kelib chiqib, hududni jadal kompleks rivojlantirish bo‘yicha Dastur loyihasini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish; 2. Dasturni amalga oshirilishini doimiy muvofiqlashtirib borish (zarur hollarda joyiga chiqish); 3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borish.	2025-yil aprel doimiy har chorakda	I. I. Norqulov <u>Sh. Abduraxmonov</u> <u>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari</u>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.	<p>Hududlarda iqtisodiy o'sishga turtki beruvchi 1 156 ta "drayver" loyihalarni amalga oshirilishini boshlash.</p> <p>Bunda birinchi bosqichda 468 ta loyihalarni amalga oshirish.</p>	<p>1. Hududlarda iqtisodiy o'sishga turtki beruvchi drayver loyihalarni aniqlash, shakllantirish va monitoring qilish bo'yicha nizom loyihagini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p> <p>2. Loyihalarni amalga oshirilishini joyiga chiqqan holda o'rganish va mavjud muammolarni bartaraf etish choralarini ko'rib borish.</p> <p>3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borish.</p>	<p>2025-yil mart</p> <p>doimiy</p> <p>har chorakda</p>	<p>I. I. Norqulov <u>Sh. Abduraxmonov</u> T. Xoliqov B. Shukurov A. Muminov Sh. Otaboyev T. Xusanov A. Zahidov A. Yokubov <u>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari</u></p>
3.	<p>Hududlarda 104 ta hududlarni rivojlantirishga qaratilgan master rejalarni ishlab chiqish.</p>	<p>1. Master rejalarni ishlab chiqish bo'yicha texnik-topshiriqlar ishlab chiqishda ishtirok etish;</p> <p>2. Master rejalar ishlab chiqilishi bo'yicha monitoring o'rnatish;</p> <p>3. Master rejaga muvofiq, yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish bo'yicha ma'lumotlarni muvofiqlashtirish.</p>	<p>2025-yil davomida</p>	<p>I. I. Norqulov <u>Sh. Otaboyev</u></p>
4.	<p>2025 yilda bozor xizmatlari hajmining 14,5 foizga o'sishini ta'minlash.</p>	<p>1. Tuman va shahar ixtisoslashuvi va imkoniyatlaridan kelib chiqib, 2025-yil uchun oyma-oy prognoz parametrlarini</p>	<p>2025-yil yanvar</p>	<p>I. I. Norqulov <u>B. Shukurov</u> Z. Astanov</p>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		<p>belgilash.</p> <p>2. Hududlarda 38,9 mingdan ziyod, shu jumladan, K-savdo platformasida 20,4 mingdan va E-auksion platformasi orqali 18,5 mingdan ortiq yer maydonlari auksion savdolariga chiqarish;</p> <p>3. Tuman/shaharlarda aholi va tashrif buyuruvchilarning dam olishi uchun 43 ta tun-u kun (24/7) ishlaydigan ko'ngilochar va gastronomik ko'chalarni tashkil etish.</p>	<p>2025-yil mart</p> <p>2025-yil davomida</p>	
5.	<p>Ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining 2025-yilda 9,5 foizdan oshib ketmasligi choralarini ko'rish.</p>	<p>Ichki iste'mol bozorida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari, ularga bo'lgan talab va taklifni doimiy monitoring qilgan holda, ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining 2025-yilda 9,5 foizdan oshib ketmasligi bo'yicha tegishli choralarni ko'rib borish.</p>	<p>2025-yil davomida</p>	<p>I. I. Norqulov <u>A. Muminov</u></p>
6.	<p>2025-yilda yer maydonlarini aholi va tadbirkorlarga ijaraga berishning yangi tizimi (keyingi o'rinlarda — yangi tizim) bo'yicha jami 5 094 ga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarini auksion savdolariga chiqarishni muvofiqlashtirish.</p>	<p>1. 2025-yil hosili uchun paxta va g'alla joylashtirilmagan 3 317 ga hamda hozirda fermerlar tomonidan foydalanayotgan 2 222 ga yer maydonining o'rtacha 80 foiz (1 778 ga) qismiga nisbatan ijara huquqidan ixtiyoriy ravishda voz kechib, ushbu yerlarni yangi tizim asosida auksion savdolariga chiqarilishini muvofiqlashtirish.</p>	<p>2025-yil mart-aprel</p> <p>2025-yil</p>	<p>I. I. Norqulov <u>Sh. Otaboyev</u></p>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		<p>2. Yangi tizimni samarali tashkil etish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida “Loyiha ofisi” va 6 ta hududda (<i>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Andijon, Namangan, Toshkent, Jizzax va Farg‘ona viloyatlari</i>) viloyat hokimliklari huzurida alohida direksiyalar tashkil etish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish.</p>	aprel	
7.	<p>Tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan 53,2 mingta bo‘sh yer maydonining hududiy hokimliklar hamda tegishli vazirlik va idoralar tomonidan auksion savdolariga chiqarilishini muvofiqlashtirib borish.</p>	<p>1. Hududiy hokimliklar hamda tegishli vazirlik va idoralar tomonidan tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyati uchun tanlangan yer maydonlarini auksionga chiqarilishi va “E-AUKSION” elektron savdo platformasida auksion savdolarining borishi yuzasidan tizimli monitoring olib borish.</p> <p>2. Auksion savdolarida realizatsiya qilingan yer uchastkalarini “iqtisodiy aylanma”ga kiritish bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar tayyorlab Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2025-yil davomida</p> <p>2025-yil dekabr</p>	<p>I. I. Norqulov <u>Sh. Otaboyev</u></p>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
8.	Startap loyihalarni amalga oshirish.	Tadbirkorlik subyektlari innovatsion va yuqori qo'shilgan qiymat beradigan startap loyihalarni amalga oshirishida ko'maklashish, bunda: "UzVC" milliy venchur fondi tomonidan venchur jamg'armalarga 20 mlrd so'm mablag' yo'naltirish; venchur jamg'armalar hamda tijorat banklari tomonidan 40 ta startap loyihalarga investitsiya kiritish (moliyalashtirish).	2025 yil dekabr	I. I. Norqulov <u>T. Xusanov</u>
9.	Har bir tuman va shaharlarda o'rtacha beshtadan tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishiga ko'maklashish orqali 1000 ta korxonalar ni yuqori darajada o'sishlariga (High growth firms) erishish.	1. Yuqori darajada o'stiriladigan tadbirkorlik subyektlarini tanlab olish. 2. Ularni rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqish. 3. 1000 ta tanlab olingan tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish.	2025-yil mart 2025-yil may 2025-yil dekabr	I. I. Norqulov <u>T. Xusanov</u>
A. Y. Xaydarov – vazir o'rinbosari <i>(Davlat budjeti va soliq siyosati barqarorligini ta'minlash, agrar soha moliyasi va iqtisodiyoti, buxgalteriya hisobi va faoliyati masalalari)</i>				
10.	Birinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilarning 2025-yil uchun budget mablag'laridan	1. Har chorak yakuni bo'yicha birinchi darajali budget mablag'larining maqsadli indikatorlarining bajarilishi bo'yicha hisobotlarini Vazirlar Mahkamasi	2025-yil har chorak yakuni bilan ikkinchi oynning	A. Y. Xaydarov <u>Sh. Muxamedov</u> tegishli tarmoq

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni umumlashtirish.	Rayosati majlisida tizimli va tanqidiy ko'rib chiqish uchun kiritish. 2. Har chorak yakuni bo'yicha birinchi darajali budget mablag'larini maqsadli indikatorlarining bajarilishi yuzasidan hisobotlarini Oliy Majlis qonunchilik palatasida ko'rib chiqish uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	10 sanasi	departamentlari
11.	Natijaga yo'naltirilgan (dasturiy) budgetlashtirish amaliyotiga bosqichma-bosqich o'tish.	1. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi budget va budgetdan tashqari xarajatlarini budget dasturlari kesimida ishlab chiqish. 2. Birinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilarning 2026 – 2028-yillar uchun budget mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlarini umumlashtirish.	2025-yil oktabr 2025-yil dekabr	A. Y. Xaydarov <u>Sh. Muxamedov</u> tegishli tarmoq departamentlari
12.	Davlat budgetidan ajratilgan genderga doir ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga taqdim etish	Genderga doir O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan ajratilgan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlarni har chorak yakunlari bilan keyingi oynning 10 sanasiga qadar O'zbekiston Respublikasi	2025-yil har chorak yakuni bilan ikkinchi oynning 10 sanasi	A. Y. Xaydarov <u>Sh. Muxamedov</u>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		Oliy Majlisi palatalariga taqdim etib borish.		
13.	Davlat budjeti xarajatlarini “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash	Davlat budjeti xarajatlarining 2026-yilgi parametrlarini yashil budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash (markirovkalash)ni amalga oshirish va tasniflash natijalari fuqarolar uchun budjet nashrida e'lon qilish.	2025-yil noyabr	A. Y. Xaydarov <u>Sh. Muxamedov</u>
14.	2025 – 2026-o'quv yilidan boshlab Respublika bo'yicha barcha maktablarda “Mening maktabim” loyihasini o'tkazish.	1. Har bir maktabga “Mening maktabim” loyihasini moliyalashtirish uchun tegishli mablag'larni ajratilishini ta'minlash. 2. “Ochiq budjet” axborot portali orqali oktabr – noyabr oylarida “Mening maktabim” loyihasini o'tkazish. 3. O'tkazilgan jarayon natijalariga ko'ra Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish.	2025-yil aprel 2025-yil noyabr 2025-yil dekabr	A. Y. Xaydarov <u>Sh. Muxamedov</u>
15.	Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni himoya qilish.	1. 2024-yil Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va tashqi auditdan o'tkazilishini ta'minlash. 2. Davlat budjeti 2024-yil va 2025-yil 1-chorak ijrosi to'g'risidagi hisobotni Vazirlar Mahkamasiga kiritish hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida himoya qilish. 3. 2025-yil yarim yillik va 9 oylik Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi	2025-yil may 2025-yil iyun belgilangan muddatlarda	A. Y. Xaydarov <u>Sh. Muxamedov</u> tegishli tarmoq departamentlari

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		hisobotni Vazirlar Mahkamasiga kiritish hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida himoya qilish.		
16.	2026 – 2028-yillar uchun Davlat budjeti loyihasini ishlab chiqish ishlarini tashkillashtirish.	2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlari loyihasini tayyorlash va kelgusi ikki yil uchun maqsadli mo'ljallarini ishlab chiqish to'g'risida buyruq loyihasini ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun vazirga kiritish.	2025-yil fevral	A. Y. Xaydarov <u>Sh. Muxamedov</u> tegishli tarmoq departamentlari
17.	O'rta muddatli davr uchun Fiskal strategiyani ishlab chiqilishini ta'minlash.	1. O'rta muddatli davr uchun Fiskal strategiyani ishlab chiqish ishlarini tashkillashtirish. 2. Ishlab chiqilgan loyihani Vazirlar Mahkamasiga himoya qilish uchun kiritish.	2025 yil aprel – may 2025 yil iyun	A. Y. Xaydarov <u>Sh. Muxamedov</u> tegishli tarmoq departamentlari
18.	2026-yil uchun Davlat budjeti to'g'risidagi Qonun va Budjetnoma loyihalari ishlab chiqilishini nazorat qilish.	1. Qonun va Budjetnoma loyihasini ishlab chiqib, rahbariyatga taqdim etish. 2. Vazirlik va idoralar bilan kelishilgan Qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil avgust 2025-yil sentabr	A. Y. Xaydarov <u>Sh. Muxamedov</u> tegishli tarmoq departamentlari
19.	Soliq va bojxona organlariga 2025-yil uchun belgilangan daromadlar prognozi ijrosini ta'minlashni nazorat qilish.	1. Soliq va bojxona ma'muriyatchiligini yaxshilash, xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish orqali soliq yig'iluvchanligini oshirish. 2. Har chorak yakuni bilan Prezident	2025-yil davomida Har chorak yakuni bilan	A. Y. Xaydarov <u>Sh. Safarov</u>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		Administratsiyasiga hisobot kiritib borish.		
20.	2026-yil uchun Davlat budjeti daromadlarining prognozlarini hisoblab chiqish.	1. Soliq va bojxona siyosatidagi o'zgarishlarni tahlil qilish. 2. 2026-yilga mo'ljallangan Davlat budjeti daromadlari prognozini shakllantirish.	2025-yil iyul 2025-yil sentabr	A. Y. Xaydarov <u>Sh. Safarov,</u> Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi
21.	Soliq siyosatining 2026-yilga mo'ljallangan yo'nalishlarini ishlab chiqish.	1. Soliq siyosatida amalga oshirilgan o'zgarishlarning amaliyotga ta'sirini tahlil qilish. 2. O'rta muddatli soliq va budget siyosatining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqib, 2026-yilga mo'ljallangan soliq siyosati yo'nalishlarini ishlab chiqish.	2025-yil iyul 2025-yil sentabr	A. Y. Xaydarov <u>Sh. Safarov,</u> Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi
22.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaori bilan belgilab berilgan budget mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari ijrosini monitoring qilish.	1. Qishloq xo'jaligi vazirligi va tizim tashkilotlarining maqsadli indikatorlar ijrosini doimiy monitoring qilish. 2. Maqsadli indikatorlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga ko'rib chiqish uchun taqdim etib borishda ishtirok etish.	Doimiy Har chorak keyingi oyi 20-sanasi	A. Y. Xaydarov <u>A. Zaxidov</u> Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasini boshqarish departamenti
23.	Qishloq xo'jaligi texnikalari xaridini davlat tomonidan rag'batlantirish uchun belgilangan tartibda tegishli mablag'lar ajratilishini ta'minlash.	Qishloq xo'jaligi korxonalarining qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish maqsadida, qishloq xo'jaligi texnikalari xarid qilinishini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari	2025-yil har chorakda	A. Y. Xaydarov <u>A. Zaxidov</u> Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasini

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		<p>ko'rib borish.</p> <p>Bunda talabgorlar tomonidan taqdim etilgan talabnomalarga muvofiq: lizing va kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini bir qismini qoplab berilishini ta'minlash; texnika qiymatining bir qismi uchun subsidiya ajratilishini ta'minlash.</p>		boshqarish departamenti
24.	Paxta xomashyosi narxlarini bozor talablaridan kelib chiqib shakllantirish bo'yicha choralar ko'rish.	Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan me'yorlarini tahlil qilish; Paxta yetishtiruvchi mamlakatlarda narxlarning shakllanishini o'rganish; O'rganish va tahlillar asosida paxtaning dunyo bozori narxlari darajasida shakllantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil iyun	A. Y. Xaydarov <u>A. Zaxidov</u> Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasini boshqarish departamenti
25.	Davlat resursiga xarid qilingan bug'doy hajmi bo'yicha taklif tayyorlash.	Mintaqa mamlakatlarida 2025-yil hosilidan yig'ib olinishi kutilayotgan bug'doy miqdori va yig'im terim davrida kutilayotgan bug'doy qoldig'i bo'yicha o'rganishlar o'tkazish; Respublikada 2025-yilda yig'ib olinishi kutilayotgan bug'doyning prognoz xarajatlari hamda 1-iyul holatiga	2025-yil may	A. Y. Xaydarov <u>A. Zaxidov</u> Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasini boshqarish departamenti

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		<p>kutilayotgan davlat resursidagi bug'doy qoldig'ini prognozlash;</p> <p>O'rganishlar asosida 2025-yil hosildan davlat resursiga xarid qilinadigan bug'doy miqdori bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.</p>		
26.	<p>Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiqligini ta'minlash maqsadida takomillashtirish.</p>	<p>Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini unifikatsiya qilish orqali hisob yuritishning soddalashtirilgan xalqaro standartlariga uyg'unlashgan Buxgalteriya hisobining milliy standartini (BHMS) loyihalarni ishlab chiqish.</p>	<p>2025-yil II chorak(1 ta), III va IV chorak (2 tadan)</p>	<p>A. Y. Xaydarov <u>O. Barakayev</u></p>
27.	<p>MHXSning yangilangan tahririni tan olish va qo'llash, MHXSni joriy etish jarayonini muvofiqlashtirish va metodologik ta'minlash.</p>	<p>MHXSga 2022–2024-yillarda kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tarjima qilish va vazirlik buyrug'ini qabul qilish orqali tan olish.</p>	<p>2025-yil II va III chorak</p>	<p>A. Y. Xaydarov <u>O. Barakayev</u></p>
28.	<p>MHXSga o'qitish va buxgalterlarning xalqaro sertifikatlash doirasida imtihon topshirish xarajatlarini qoplab berish.</p>	<p>MHXS bo'yicha o'qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida oliy ta'lim muassasalarining pedagog kadrlari va talabalarini, davlat organining xodimlarini o'qitish hamda dastlabki ro'yxatdan o'tish va imtihon topshirish uchun ro'yxatdan o'tish xarajatlarini qoplab berish tizimini davom ettirish.</p>	<p>2025-yil davomida <i>(kelib tushgan arizalarga asosan)</i></p>	<p>A. Y. Xaydarov <u>O. Barakayev</u> Xarajatlarini qoplab berish bo'yicha komissiya a'zolari</p>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
29.	<p>Auditorlik faoliyatini va auditorlik bozorini tartibga solish.</p>	<p>1. Auditorlik tashkilotlari va auditorlar Reyestrini yuritish (yangilab borish) va vazirlik saytiga e'lon qilish.</p> <p>2. Auditorlik xizmatlari bozorini choraklik va yillik tahlili va hisobotini e'lon qilish.</p>	<p>Kelib tushgan arizlarga muvofiq</p> <p>2025-yilning har chorakdan keyingi oyning 15-sanasiga qadar</p>	<p>A. Y. Xaydarov <u>O. Barakayev</u></p>
30.	<p>Auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish bo'yicha xalqaro xorijiy mamlakatlarda tajriba o'tash va o'rganish asosida tavakkalchilik tahlili bo'yicha yuqori tavakkalchiligi bo'lgan auditorlik tashkilotlari ishini tashqi nazoratdan o'tkazish ishlarini tashkil etish.</p>	<p>1. "Auditorlik tashkiloti ishining sifatini tashqi nazoratdan o'tkazishni tashkil qilish to'g'risida" buyruq loyihasini ishlab chiqish;</p> <p>2. Tavakkalchilik tahlili bo'yicha yuqori tavakkalchiligi bo'lgan auditorlik tashkilotlari ishini tashqi nazoratdan o'tkazish tizimini ta'minlash.</p>	<p>2025-yil I chorak</p> <p>2025-yil yakuniga qadar</p>	<p>A. Y. Xaydarov <u>O. Barakayev</u></p>
31.	<p>Auditning xalqaro standartlarini davlat tiliga tarjima qilish.</p>	<p>AXSni davlat tiliga tarjima qilish va uni vazirlik veb-saytiga joylashtirish orqali davlat tilidagi matnini tan olish.</p>	<p>2025-yil yakuniga qadar</p>	<p>A. Y. Xaydarov <u>O. Barakayev</u></p> <p>O'zbekiston auditorlar palatasi</p>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		<p>chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Xususan:</p> <p>budjet barqarorligini ta'minlash va uning taqchilligining YIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik;</p> <p>har chorakda joriy operatsiyalar hisobi balansining joriy holati, yillik kutilishi va milliy valyuta real samarali ayirboshlash kursini tahlil qilish hamda tashqi savdoga ta'sir qiluvchi jahon narx o'zgarishlarini kuzatib borish orqali zarur hollarda vazirlik va idoralar bilan birgalikda choralar ko'rib boriladi.</p> <p>3. Belgilangan islohotlarni amalga oshirilishini monitoring qilishda:</p> <p>iqtisodiy o'sish prognoz parametrlariga erishish uchun belgilangan islohotlar va amalga oshirilishi zarur tezkor choralarning bajarilishi monitoring qilinib, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rib borish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi;</p> <p>har oy vazirlik va idoralar bilan birga Bosh vazir o'rinbosari huzurida hamda har chorakda Bosh vazir huzurida amalga oshirilgan ishlar va yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar muhokama qilib boriladi.</p>	<p>Chorak yakuni bilan keyingi oynning 25-sanasida</p>	

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
33.	O'zbekiston Respublikasining demografik prognoz parametrlarini 2024-yil aholi sonidan kelib chiqqan holda qayta hisoblab chiqish.	<p>1. Statistika agentligidan 2024-yil yakuni bilan aholi sonini hududlar va yosh tarkibi bo'yicha hisobotlarini olish.</p> <p>2. Statistik tahlillardan kelib chiqqan holda O'zbekiston aholisining 2050 yilgacha bo'lgan davri bo'yicha prognozlarini ishlab chiqish.</p> <p>3. Ishlab chiqilgan aholi soni prognozlari bo'yicha tegishli ma'lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	2025-yil 25-avgust	U. K. Abidxadjayev <u>A. Djalilov</u>
34.	Milliy shaffoflik tizimi doirasida issiqxona gazlarini mustaqil tekshirish tashkiloti (validatsiya va verifikatsiya kompaniyasi) faoliyatini yo'lga qo'yish.	Issiqxona gazlari ajratmalarini tekshirish tashkilotining (validatsiya va verifikatsiya kompaniyasi) belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tkazish.	2025-yil dekabr	U. K. Abidxadjayev Sh. Islamov <u>"Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi" loyiha ofisi</u>
35.	"Yashil energiya" sertifikatlari emissiya hajmini 400 mingga yetkazish.	Korxonalar va banklarda "uglerod izi"ni qisqartirish bo'yicha qayta tiklanuvchi energiya manbalari orqali ishlab chiqarilgan har bir 1000 kVT/s elektr energiyasi uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarga, shu jumladan davlat ishtirokidagi korxonalar va banklarga "yashil energiya" sertifikatlarining emissiya hajmini 400 mingga yetkazish.	2025-yil dekabr	U. K. Abidxadjayev <u>"Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi" loyiha ofisi</u> Sh. Islamov

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
36.	Mamlakat iqtisodiyotini 2050-yilga qadar dekarbonizatsiyalash strategiyasini ishlab chiqish.	Energetika, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, sanoat va chiqindilarni qayta ishlash sohalarida tegishli kam uglerodli rivojlanish strategiyalarini hamda ularning indikativ maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash bo'yicha qaror loyihasini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil dekabr	U. K. Abidxadjayev <u>Sh. Islamov</u> T. Xoliqov
37.	O'zbekiston Respublikasida yashil moliyalashtirish (Climate Finance) tizimini takomillashtirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasini ishlab chiqish.	Loyiha bilan 2026–2030 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasida yashil moliyalashtirish (Climate Finance) tizimini takomillashtirish bo'yicha milliy dasturning ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi nazarda tutiladi.	2025-yil noyabr	U. K. Abidxadjayev <u>Sh. Islamov</u>
38.	Xalqaro darajada issiqxona gazlarini qisqartirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish, ularning savdosini tashkil etishni muvofiqlashtirish.	1. Issiqxona gazlari chiqarilishini qisqartirish va savdosini yo'lga qo'yish sohasidagi normativ-huquqiy bazani mustahkamlash. 2. Issiqxona gazlarini qisqartirish va xalqaro darajada savdosini amalga oshirishga qaratilgan loyihalarning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish.	2025-yil davomida 2025-yil davomida	U. K. Abidxadjayev <u>Sh. Islamov</u>
39.	Transchegaraviy uglerodni tartibga solish mexanizmi	1. Transchegaraviy uglerodni tartibga solish mexanizmi (CBAM)ni joriy qilish	2025-yil sentabr	U. K. Abidxadjayev “Yashil iqtisodiyot

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	(CBAM)ni joriy qilinishi mahalliy eksportyorlarni raqobatbardoshligini saqlab qolishga ko'maklashish.	bo'yicha xalqaro moliyaviy institutlar va rivojlanish bo'yicha hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish. 2. Mahalliy kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi 2 ta korxonaning issiqxona gazlari ajratmalarini tajriba-sinov tariqasida xatlovdan o'tkazish; 3. Xatlov natijasidan kelib chiqib, xalqaro talablarga tayyorgarlik darajasini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil davomida 2025-yil dekabr	<u>loyihalari markazi</u> " loyiha ofisi Sh. Islamov
40.	Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirish maqsadida a'zo davlatlar bilan O'zbekistonning xizmatlar bozoriga kirish bo'yicha ikki tomonlama muzokaralarni yakunlash.	1. A'zo davlatlar tomonidan bildirilgan talablar asosida tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda O'zbekistonning yangilangan majburiyatlar jadvalini ishlab chiqish. 2. Yangilangan majburiyatlar jadvali asosida a'zo davlatlar bilan muzokaralar o'tkazish va yakuniy Bayonnomalarni imzolash.	2025-yil davomida	U. K. Abidxadjayev <u>A. Djalilov</u>
41.	Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida tashkil etiladigan ko'ptomonlama muzokaralar, shuningdek, qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab quvvatlash bo'yicha	1. Ko'ptomonlama muzokaralar davomida maqroiqtisodiy, fiskal va soliq siyosatlarini bo'yicha, shuningdek, yer masalalari bo'yicha a'zo davlatlar tomonidan bildirilgan talablarga tegishli javoblar tayyorlash hamda	2025-yil davomida	U. K. Abidxadjayev <u>A. Djalilov</u>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	Cairns Group (JSTga a'zo qishloq xo'jaligi maxsulotlarini eksport qiluvchi davlatlar guruhi) vakillari bilan uchrashuvlarda qatnashish.	O'zbekistonning pozitsiyasini himoya qilish. 2. Qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha Cairns Group vakillari tomonidan bildirilgan savollarga javoblar tayyorlash va uchrashuvlar davomida O'zbekistonning pozitsiyasini himoya qilish.	2025-yil davomida	A. Ya. Xaydarov <u>A. Zaxidov</u>
42.	Keyingi yillarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan iqtisodiy islohotlar va yirik loyihalar bazasini shakllantirish.	Kelgusi yillarga mulljalangan islohotlar va loyihalar to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar umumlashtiriladi; Iqtisodiy islohotlarni "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va Barqaror rivojlanishning milliy maqsadlari bilan o'zaro muvofiqligini ekspertizadan o'tkazgan holda istiqbollilari ajratib olinadi; kelgusi yillarda ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan strategik rejalashtirish hujjatlarida ushbu islohotlar aks ettiriladi.	2025-yil aprel	U. K. Abidxadjayev <u>I. Qosimxo'jayev</u> A. Djalilov
43.	Vazirlikning strategik maqsadlari va funksional vazifalaridan kelib chiqqan holda 2025–2027-yillarga mo'ljallangan natijaga yo'naltirilgan budjet dasturlarining yakuniy tahriri	2025–2027-yillarga mo'ljallangan natijaga yo'naltirilgan budjet dasturlarining mos davrga muljallangan fiskal strategiyada aks ettirilishi ta'minlanadi; vazirlikning Budjet dasturlari ustidan tizimli monitoring yo'lga qo'yiladi.	2025-yil iyul Yil davomida	U. K. Abidxadjayev <u>I. Qosimxo'jayev</u>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	ishlab chiqilib, ularning tizimli monitoringi yo'lga qo'yiladi.			
44.	Islohotlarni muvofiqlashtirish va baholash ishlari hamda Davlat dasturi , "O'zbekiston-2030" strategiyasi hamda kelgusi yillarda qabul qilinadigan strategik rejalashtirish hujjatlarda belgilangan islohotlarni amalga oshirilishi va natijadorligini nazoratini olib borish.	Amalga oshirilishi belgilangan islohot va choralar ijro holati doimiy nazorat qilib boriladi. Islohotlarning iqtisodiyot hamda davlat moliyasiga ta'sirini birga baholash hamda islohotlarni ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri va natijadorligi yuzasidan monitoring ishlari (post-tahlil) muntazam amalga oshiriladi.	Har oy yakuni bilan	U. K. Abidxadjayev <u>I. Qosimxo'jayev</u> A. Djalilov
45.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 31-dekabrda PQ-467-son qarorida belgilangan tadqiqotlar bilan bog'liq topshiriqlar va vazifalar ijrosini ta'minlab borish.	1. Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish bo'yicha strategik yo'nalishlardagi tadqiqotlar mavzular va loyihalar bo'yicha takliflar kiritib borish. 2. Amalga oshirilgan tadqiqotlarning natijalaridan ustuvor yo'nalishlarni belgilash jarayonida foydalanish bilan bo'g'liq faoliyatni muvofiqlashtirish.	Yil davomida	U. K. Abidxadjayev <u>I. Qosimxo'jayev</u> A. Djalilov
O. R. Fazilkarimov – vazir o'rinbosari <i>(Ijtimoiy soha, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy muhofaza masalalari)</i>				
46.	Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga davlat budjetidan ajratiladigan subsidiyalarni moliyalashtirish.	1. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda hududlar kesimida subsidiya ajratiladigan tashkilotlar monitoringini yuritish. 2. Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga davlat budjetidan	Yil davomida	O. R. Fazilkarimov <u>A. Eshchanov</u>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		ajratiladigan subsidiyalarni o'rnatilgan tartibda moliyalashtirib borishni ta'minlash.		
47.	“Pearson” ta'lim dasturlari asosida ta'lim beruvchi texnikumlar faoliyatini yo'lga qo'yib, moliyaviy manbalar bilan ta'minlash.	1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-sonli Farmoniga muvofiq, xalqaro ta'lim dasturlari joriy etiladigan muassasalar holatini o'rganish. 2. Ta'lim jarayonini sifatli yo'lga qo'yish uchun zarur choralarni ko'rgan holda, Farmonda belgilangan tartibda moliyalashtirib borishni ta'minlash.	2025-yil 3-chorak yakuni	O. R. Fazilkarimov <u>A. Eshchanov</u>
48.	“Talim-krediti.mf.uz” platformasi orqali tijorat banklariga mablag'lar ajratish jarayonini raqamlashtirish.	1. Tizimni takomillashtirish imkoniyatlarini o'rganib chiqish. 2. Raqamlashtirish jarayoniga ulanadigan tijorat banklari bilan tegishli texnik jarayonlarni amalga oshirish. 3. “Talim-krediti.mf.uz” platformasi orqali tijorat banklariga mablag'lar ajratish jarayonini raqamlashtirishni ta'minlash.	2025-yil 2-chorak 2025-yil 3-chorak yakuni	O. R. Fazilkarimov <u>A. Eshchanov</u>
49.	2025-yilda 6 ta hududdagi tibbiyot muassasalarini	1. Moliyalashtirishning yangi mexanizmlariga o'tgan tibbiyot	2025-yil 1-yanvar	O. R. Fazilkarimov <u>A. Eshchanov</u>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	(Qoraqalpog'iston, Navoiy, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo) Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi orqali moliyalashtirishga o'tkazish.	muassasalariga tegishli g'aznachilik hisob-varaqlari ochiladi. 2. Jamg'armaning hududiy bo'linmalariga tibbiy sug'urta tizimi budjetini bir satrda jamlash uchun tegishli hisobvaraqlar ochiladi. 3. Har bir hudud uchun tibbiy sug'urta tizimi budjetlari tegishli hisobvaraqlarga jamlangan holda ijro uchun kiritiladi.	(Qoraqalpog'iston Respublikasi) 2025-yil 1-iyul (Navoiy, Samarqand) 2025-yil 1-oktabr (Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo)	
50.	Sog'liqni saqlash muassasalarida ish haqi to'lovlarini hisoblashda Davlat budjetidan moliyalashtirish jarayonlarini (shtatlar jadvali va tarifikatsiyani elektron shakllantirish) raqamlashtirish.	1. Texnik topshiriq loyihasini ishlab chiqish; 2. Texnik topshiriq asosida dasturiy majmuaga tarifikatsiya ro'yxatini tuzish jarayonini avtomatlashtirish choralarini ko'rish.	2025-yil 2-chorak yakuni	O. R. Fazilkarimov <u>A. Eshchanov</u>
51.	2025-yilda sog'liqni saqlash tizimini transformatsiya qilish bo'yicha Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi faoliyatini takomillashtirish.	Ilg'or xorijiy tajriba asosida tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlarini o'rganib chiqib tizimni transformatsiya qilish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish.	2025-yil 2-chorak yakuni	O. R. Fazilkarimov <u>A. Eshchanov</u>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
52.	2025-yilda 8 ta Davlat muzeyini mukammal ta'mirlash va jihozlashni moliyalashtirish .	<p>Davlat muzeylarini mukammal ta'mirlash va jihozlash tadbirlarini moliyalashtirib borish:</p> <ul style="list-style-type: none"> – Paxtaobod tumani tarixi muzeyi (Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining filiali); – Karmana tumani Qosim Shayx majmua muzeyi (Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining filiali); – Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining Kosonsoy tumani tarixi muzeyi filiali; – “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasining Kattaqo‘rg‘on shahri tarixi muzeyi; – “Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonasining Amaliy san‘at muzeyi filiali; – “Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonasining Hamza uy-muzeyi filiali; – Sergey Yesenin muzeyi; – Tamaraxonim uy-muzeyi. 	2025-yil yakuniga qadar	O. R. Fazilkarimov <u>A. Eshchanov</u>
53.	Davlat maqsadli jamg‘armalari tomonidan aholi bandligini ta'minlash maqsadida	Joriy yilda 27 ta samaradorligi past va takrorlanuvchi subsidiyalarni bekor qilish.	2025-yil yakuniga qadar	O. R. Fazilkarimov <u>I. Nabijanov</u>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	ajratilayotgan samaradorligi past va takrorlanuvchi subsidiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish.			
54.	Davlat maqsadli jamg'armalari tomonidan aholi bandligini ta'minlash maqsadida ajratilayotgan subsidiyalarni bosqichma-bosqich ssuda shaklida berishga o'tkazish.	Joriy yilda 6 ta subsidiyani bosqichma-bosqich ssuda shaklida berishga o'tkazish.	2025-yil yakuniga qadar	O. R. Fazilkarimov <u>I. Nabijanov</u>
55.	Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish Konsepsiyasi bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.	Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro mehnat tashkiloti hamda mahalliy ekspertlarni jalb qilgan holda, Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish bo'yicha Konsepsiya loyihasiga takliflarni Prezident Administratsiyasiga kiritish.	2025-yil mart	O. Fazilkarimov <u>I. Nabijanov</u> Pensiya jamg'armasi
X. B. Mustafayev – vazir o'rinbosari <i>(Sanoat siyosati, yoqilg'i-energetika majmui va tog'-kon metallurgiya siyosati, transport, aloqa, turizm va uy-joy kommunal xo'jaligi siyosati masalalari)</i>				
56.	Iqtisodiyotda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 6,1 foiz o'sish sur'atiga erishishni tashkil etish.	1. Tarmoq va hududlarda har chorak bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini tasdiqlab, ijrosi yuzasidan tahlillar tayyorlash va axborotni Prezident Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Chorak yakuni bilan keyingi oyning 25-sanasida	X. B. Mustafayev <u>T. Xoliqov</u>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		2. Asosiy turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularning iste'moli bo'yicha balans ko'rsatkichlarini bajarilishi bo'yicha tahliliy materiallar tayyorlash.		
57.	Tabiiy gazni xarid qilish va sotish orasidagi salbiy farqni qoplash uchun “UzGasTrade” AJga budjetdan subsidia ajratib borish.	1. Har oy yakuni bilan subsidiyaga talabni hisob-kitob qilish va zaruratdan kelib chiqib moliyalashtirib borish. 2. Yil yakunida “UzGasTrade” AJga davlat budjetidan 7 trln so'm subsidia ajratish.	Har oy yakuni bilan keyingi oyning 10-sanasiga qadar 2025-yil dekabr	X. B. Mustafayev <u>A. Nazarov</u>
58.	Elektr energiyasini xarid qilish va sotish orasidagi salbiy farqni qoplash uchun “O'zenergosotish” AJga budjetdan subsidia ajratib borish.	1. Har oy yakuni bilan subsidiyaga talabni hisob-kitob qilish va zaruratdan kelib chiqib, moliyalashtirib borish. 2. Yil yakunida “O'zenergosotish” AJga davlat budjetidan 500 mlrd so'm subsidia ajratish.	Har oy yakuni bilan keyingi oyning 10-sanasiga qadar 2025-yil dekabr	X. B. Mustafayev <u>A. Nazarov</u>
59.	2025-yil uchun Mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturi doirasida budjetdan mablag' ajratib borish.	1. 2025-yil uchun Mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturini ko'rib chiqish va tasdiqlash. 2. Tasdiqlangan dastur doirasida imzolangan shartnomalarga asosan, davlat budjetidan mablag' ajratib borish.	2025-yil fevral 2025-yil davomida	X. B. Mustafayev <u>A. Nazarov</u>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
60.	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Idoralararo tarif komissiyasining bayoni loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash.	<p>1. Elektr energiyasi va tabiiy gazni ishlab chiqarish, yetkazib berish, sotish tariflarini qayta ko'rib chiqish.</p> <p>2. Elektr energiyasi va tabiiy gazni sotishdan tushadigan pul mablag'lari taqsimotini qayta ko'rib chiqish.</p> <p>3. Ayrim toifadagi shaxslarga avtomobil benzinini xarid qilish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun har oylik pul kompensatsiyasi miqdorini belgilash.</p> <p>4. Bayon loyihasini komissiya a'zolari bilan kelishish va tasdiqlash.</p>	2025-yil davomida	X. B. Mustafayev <u>A. Nazarov</u>
61.	Sanoat korxonalarini moliyaviy holatini yaxshilashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqib Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	<p>1. "Tabiiy gazning raqobatli bozoriga bosqichma-bosqich o'tish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini Energetika vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqish.</p> <p>2. "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi.</p>	2025-yil mart 2025-yil oktabr	X. B. Mustafayev <u>A. Nazarov</u>
62.	Muntazam shahar avtobus yo'nalishida cheklangan tariflar bo'yicha avtobusda yo'lovchilar tashishni brutto-shartnoma	1. Elektron to'lov tizimini ommalashtirish, jamoat transporti korxonalarining zarar bilan ishlashining olidini olish, ularning to'lovchanlik	2025-yil davomida	X. B. Mustafayev <u>Z. Astanov</u>

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	asosida “Toshshahartrans” AJ moliyalashtirish.	qobiliyatini yaxshilash hamda tabaqalashtirilgan tariflarni joriy qilish. 2. Tasdiqlangan budjet parametr doirasida muntazam shahar avtobus yo‘nalishida cheklangan tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar tashishni brutto-shartnoma asosida tashkil etish va moliyalashtirish uchun davlat budjetidan mablag‘ ajratib borish.		
